

Karimov Shoxrux Qaxramonovich
Buxoro Davlat Universiteti Tarix va yuridik fakulteti

BUXORO TARIXIY-GEOGRAFIYASI (1991-2023YY)

Annotatsiya: Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yurtimizda bir qator islohotlar o‘tkazildi. Jumladan birinchi prizidentimiz-Islom Abdug‘aniyvich Karimov tashabbusi va bevosita ishtirokida O‘zbekistonning o‘n ikki viloyati hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida bir qator qurulish, fan va madaniyat sohasida o‘zgarishlar va yangicha zamонавиъ loyihalar o‘rtaga qo‘yildi. Birinchidan O‘zbekiston tabiatni, iqlimi, suv va xo‘jalik sohalarida yangicha tadbirlar olib borish va global muammolardan biri hisoblangan “ Orol ” fojiasini oldini olish borasida salohiyatli ishlarni amalga oshirish oldimizdagi masulyatlardan biridir. Shu munosabat bilan Buxoro tarixiy-geografiyasini o‘rganish hamda muammolarga yechim topishni oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Kalit so‘zlar: Tabiat, iqlim, migratsiya, arxitektura, statistika, eksport, import, millat va elat.

Kirish: Buxoro tarixiy-geografiyasi 1991-2023-yillar oralig‘ida qanday o‘zgarishlarga olib keldi. 31-yillik faoliyatida nimalar o‘zgardi-yu nimalar yangidan qad rostladi. Ta‘limda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Muammolar oqibatida Buxoro iqtisodiyotida tushkunlik holatlar ro‘y berishini oldini olish borasida qanday tadbirlar o‘tkazildi. Geografik muammolar sodir bo‘lishi oqibatida Buxoroda: dehqonchilik, chорвачilik hamda hunarmandchilik sohalari, aholi migratsiyasi, tabiiy boyliklar zaxirasi, etnik tarkib va millatlararo munosabatlar bиргина buxoroliklar misolida qanday kechkani haqida so‘z yuritamiz.

Asosiy qism: Tabiiy geografik jihatdan viloyat hududining relyefi tekisliklar hamda Quljuqtog‘, Ko‘kchatog‘, tuzkoytog‘, Jarqoq, Saritosh, Qorako‘l, Dengizko‘l, Uchbosh, Qoraqir, Somontepa, Sho‘rquduq, Chorbakti, Nortepa kabi past-tog‘, plato-qirlardan iborat. Mutlaq balandligi Kuljuqtog‘-785m.

Iqlimi keskin kontental, o‘zgaruvchan bahor, uzoq davom etadigan quruq, jazirama yoz, qisqa va o‘zgaruvchan kuz, ba‘zida esa ayozli qish harakterli. Yanvar oyining o‘rta harorati (-0.1C -2.1C), iyulning o‘rtacha harorati (+27.4C +31.1C). Eng issiq harorat Buxoroda iyul oyida (+46C), eng past harorat (-25C). Viloyatda tabiiy oqar suv manbaalari yo‘q. Bugungi kunda asosiy suv manbai 1962-1975-yillarda qurilgan AMU-BUXORO mashina kanalidir. Kanal orqali Amudaryodan har yili 4.2-4.8km.kub suv olinadi. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalariga oqiziladi. Obikor yerkarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida zovurlar tizimi yaratilgan bo‘lib, ular orqali oqova suvlar: Oyoqog‘itma, Sho‘rko‘l, Qoraxotin, qoraqir, Zamonbobo, Katta Tuzkon, Kichik Tuzkon, Dengizko‘l, Devxona, Xadicha, Qumsulton kabi o‘n dan ortiq ko‘llarga oqizilmoqda.

Zarafshon qadimiy deltalarida obod manzilgohlari (Buxoro, Qorako‘l) yaratilgan. Ularda xalqimizning aql-zakovati bilan yaratilgan mingdan ortiq madaniy, ma‘naviy va moddiy meroslar mujassam. Bugungi kunda ular turizimning o‘ndan ortiq yo‘nalishlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xo‘jaligi jihatdan aholining ko‘p qismi qishloqda yashaganligi sababli dehqonchilik, chорвачilik va hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Buxoro sun‘iy sug‘orishga moslashganligi sababli bu yerda: Sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, ayniqsa, bug‘doy va paxta ko‘plab

yetshtirilgan. Ayniqsa donli va dukkakli ekinlar ko‘plab topiladi. Statistika malumotlarga qaraganda:

Dehqonchilik 2010-yil holatiga ko‘ra-1364.9mlrd so‘m bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilning yanvar, dekabr oyida-18175.7mlrd so‘mga teng bo‘lib qolgan.

Chorvachilik 2010-yil holatiga ko‘ra-1061.4mlrd so‘m bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yil-19174.3mlrd so‘mni tashkil etadi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati o‘tgan yiliga nisbatan foiz ko‘rsatkichi.

Dehqonchilik 2010-yil holatiga ko‘ra-108.6%, 2023-yilda esa-104.6%.

Chorvachilik 2010-yil holatiga ko‘ra-106.2%, 2023-yilda esa-102.9% ga teng bo‘lgan. Bu O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ahvolini ko‘rsatib o‘tmoida. Tumanlar kesimida qishloq xo‘jalik mahsuloti Buxoro viloyati 2010-yilda-2426.3mlrd so‘m, 2023-yilda-37350mlrd so‘mni tashkil etkan. Shaharda esa aholi vakillari korxona, sex va fabrikalarda ish faoliyatini yuritgan. Buxoro viloyatida bir qator korxonalar va tashkilotlar aholini ish bilan ta‘minlan kelmoqda. Jumladan: 8 ta yengil sanoat korxonasi, 2 ta poyabzal va 4 ta tikuvchilik fabrikasi, Buxoro konserva zavodi, un kombinati va boshqalar mavjud edi. Bu yerlarda ishlayotgan o‘zbekistonlik fuqarolar ko‘p kishini tashkil etadi. Korxonalar: “Agromir-Bukhara”MCHJ(Ma‘sulyati cheklangan jamiyat) qo‘shma korxonasi, “Biser Shergiron mebel”MCHJ, “Buxara Cotton Texstil”MCHJ korxonalari viloyat va tumanlardagi xotin-qizlar va erkaklarni ish bilan ta‘minlab turibdi.

Buxoro viloyatining makro iqtisodiy ko‘rsatkichlari 2010-yil YHM(Yalpi hududiy mahsulot)-4651.6mlrd so‘m / 110.0% o‘sdi. 2023-yil holatiga ko‘ra-53232.3mlrd so‘m / 105.2% o‘sdi.

Sanoat mahsulotlari-2010-yil-1674.8mlrd so‘m / 110.2%. 2023-yil-31632.9mlrd so‘m o‘sdi. Buxoro iqtisodiyoti XXI-asrda barqarorlashib bordi. 2021-yil pandemiya oqibatiga qaramasdan Prizident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yaratilgan imkoniyatlar va qulay sharoit bo‘lgan. Buxoro Shahar moliyaviy budgetning qo‘sishimcha daromadlari-1395mln so‘mni tashkil etadi. 2017-yil sobiq Buxoro paxta tozalash fabrikasining 10-hektar tashlandiq yerida BCT(Buxara Cotton Texstil) xususiy korxonasi tashkil etilgan bo‘lib, 2019-yil Buxoroda fabrika “JNSI” matosi ishlab chiqardi. Bugungi kunda 8.2mln\$ mahsulot eksport qilindi. 1996-yilda Buxoro viloyatida sanoat korxonalar umumiyligi soni-969 ta bo‘lib, 2006-yilda ularning soni-1715 tani, 2020-yilning dekabr oyida-4432 tani tashkil qilgan. 2022-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, Buxoro viloyati aholisining soni-1990400 kishini tashkil etgan. Bu O‘zbekistonning viloyatlar orasida (9-o‘rin-14 tadan). Qishloq aholisi-62%, Shahar aholisi-38% ini tashkil etadi.

Etnik tarkib O‘zbekistonda 2021-yil holatiga ko‘ra:

- | | |
|-------------------------------|-------------------------------|
| 1.O‘zbeklar-1801896 / 92.54%; | 8.Ozarbayjonlar-2144 / 0.11%; |
| 2.Tojiklar-60898 / 3.13%; | 9.Koreyslar-1778 / 0.09%; |
| 3.Ruslar-24978 / 1.28%; | 10.Yahudiylar-1044 / 0.05%; |
| 4.Qozoqlar-16510 / 0.85%; | 11.Armanlar-944 / 0.05%; |
| 5.Turkmanlar-11633 / 0.60%; | 12.Qoraqalpoqlar-932 / 0.05%; |
| 6.Tatarlar-4905 / 0.25%; | 13.Belaruslar-763 / 0.04%; |

7.Lo‘lilar-3391 / 0.17%; 14.Ukrainlar-2585 / 0.13%.

Boshqa millatlar-12164 / 0.62% ini tashkil etadi.

Qishloqda aksariyat ayollar uy bekasi yoki tikuvchilik bilan shug‘ullanadi. Erkaklar qishloqda tadbirkorlik bilan yoki chet elga ishlash(Migratsiya)ga jo‘nab ketadi. Bu ko‘rsatkich 2021-yilda yanvar-mart oyida (emigratsiya-2.2 ming nafar, migratsiya-3.5 ming nafar kishi)ga teng bo‘lib qolgan. Agar qishloqda me‘moriy yodgorliklar, dam olish maskanlari, qo‘riqxonalar, suv (sharshara, daryo, ko‘l) va boshqa obyektlar bo‘lsadagina, u yerda uy-mehmonxonalar, hotellar, dam olish maskanlari, bo‘lishi darkor.

2019-yil 14-iyun 495-son hukumat qaroriga binoan-246 nafar xotin-qiz og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan va nogironligi bo‘lganligi uchun: Nogironlik aravachasi, eshitish moslamasi va realibilitatsiya vositalari bilan ta‘minlash, ishlash istagidagi 2261-nafar ayolni “Ustoz-shogird” tizimi asosida hunarmandchilikka o‘rgatish nazarda tutilgan. Unga ko‘ra 540-mahalladan jami-316 ta loyiha amalga oshirildi hamda 22436 ta yangi bo‘sh ish o‘rinlari yaratildi.

Bu orqali esa 17-ming ishsiz ayol ish bilan ta‘minlandi(Buxoro misolida).

Jumladan qurulish sohasiga ham bir qator yangiliklar va yangi uskuna-jihozlar yetkazib berildi.

Buxoro Davlat Universiteti (Pedagogika institute) sifatida 1930-yil tashkil etilgan bo‘lsada, 1992-yil 15-martdan O‘zbekiston Respublikasi Prizidenti farmoniga binoan-Universitet maqами berildi. O‘n ta fakultetni qamrab oladi. Bular: (Iqtisodiyot va turizm, Tarix va yuridik, Tabiiy fanlar) va h.k. Rektor-Hamidov.Obidjon.Hafizovich. Talabalr soni-21776 tani tashkil etadi. Shulardan: Bakalavriat-21175 ta, Magistratura-601 tani tashkil etadi.

Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti 1958-yil Toshkent Politexnika institutining sirtqi umumiy mehanika fakulteti sifatida faoliyat yuritgan. O‘zbekiston Respublikasi Prizidenti 2013-yil 15-apreldagi PQ-1954-sonli qaroriga asosan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tashkil etildi. Bakalavriat-5580 ta, Magistratura-146 tani tashkil etadi. Umumiy maydini-25 ga bo‘lib, 4 ta o‘quv binosi, 2 ta talabalar turar joyi, zamonaviy sport zal va akademik litseyni o‘z ichiga oladi. Rektori-Siddiqova Sadoqat G‘afforovna.

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti (BSMI) 1990-yil oktyabr oyida tashkil etilgan. 8 ta fakultetni qamrab olgan. 8500dan ortiq talabani o‘qitadi. Rektori-Teshayev Shuxrat Jumayevich.

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro Viloyat-Axbarot kutubxona markazi(ARM-O‘lkashunoslik). 1921-yil 30-iyunda ochilgan. Asoschisi-Muso Saidjonov. 2016-yil ma‘lumotiga qaraganda-239066 ta kitoblar mavjud.

Buxoro viloyat-bolalar kutubxona markazi 1964-yil 1-iyulda tashkil etilgan. 1993-yil 25-yanvarda kutubxonaga buyuk tarixchi olim-Muhammad Narshaxiy nomi berildi. Fondda-138 ming nusxdadan ortiq kitob bor. 25 ta bolalar kutubxonalariga metodik rahbarlik qiladi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan so‘nggi ma‘lumotlarga qaraganda 2021-yil 1-yanvarda-1644 nafar chaqaloq dunyoga kelgan. Shunda bu ko‘rsatkich bo‘yicha Buxoro va Andijon 8-o‘rinda bo‘lib (79-nafar) tug‘ilgan.

Buxoro shahrida aholi va sayyoohlarga xizmat ko'rsatish maskanlari jumladan **Buxara Grand hotel, Sahid Zarafshon hotel, Varaxsha mehmonxonasi, Sardor-fayz uy-mehmonxonasi, Bibi Orifa uy-mehmonxonasi, To'dako'l dam olish maskani** va faoliyat yuritib kelmoqda. Buxoro shaharining o'zida-186 ta mehmonxona ro'yxatga olingan, xonalar soni-4038 ta, o'rinalar soni-8369 tani tashkil etadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda 2022-yil noyabr holatiga ko'ra, mamlakatimizda-4879 ta joylashtirish obyekti faoliyat ko'rsatmoqda, shundan-3484 tasi uy-mehmonxonalar va yotoqxonalar, 935 ta hotellar va 66 ta dam olish maskani sertifikat olgan.

Xulosa: Shu o'rinda ta'kidlab o'tish mumkinki, Buxoro tarixiy-geografiyasini tabiat bilan bir qatorda ta'lim, fan, inshootlar qurulishi, xizmat ko'rsatish binolari va boshqa binolar Buxoro xalqiga ko'mak berib turibdi. Shuning ortidan sayyoh olimlar, mehmonlar va mahalliy aholidan olingan soliq va boshqa tushumlar byudjedni to'ldirib bormoqda. Hadisi sharifda(**Ilm olmoq har bir musulmon erkak va ayolning farzdir**) deb bejizga aytilmagan. Chunki ilm ortidan keladigan daromad insonnin ma'naviy ham moddiy ham ta'minlab turadi. Bu bilan bir qatorda tariximizni dunyo ko'rib tan oladi. Davlat iqtisodi, moliyasi, g'aznasi to'lib boradi.

1997-yil Buxoroning 2500-yillik yubeleyi nishonlandi. Nishona munosabati bilan bir nechta viloyatlardagi me'moriy binolar qad rostladi, qurilganlari qayta ta'mirlandi va aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Geografiyaga to'xtalsak mo'tadil iqlim to'rt fasl mujassam, tabiatni yam-yashil, o'simliklarga juda boy, shifobaxsh o'simlik-dori vositalari behisob tog'yon bag'rlarda yastanib yotibdi. Shifobaxsh o'simlik, loy qorishmalaridan tibbiyotda juda keng ko'lamda foydalilaniladi. Buxoroda Sitorai mohi xossa dam olish maskaniga Buxoro aholisi uchun ham, viloyatlardagi aholi uchun ham, hattoki qo'shni respublikalardan shifo topish maqsadida aholi keladi. Shu bilan Buxoro tarixiy-geografiyasiga yakun yasaymiz.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Toshov X.R, Rahimov.O.H, Hikmatova.G.I. "Suv qadri". Buxoro. 2018.
2. Комитет по статистике Узбекистана демографическая данний 2019-2020 год.
3. <https://www.buxstat.uz>. Olindi: 2024.04.16.
4. <https://суберлэнинка.ru>. Olindi:16.04.2024.
- 5.<https://goldenpages.uz>. Olindi: 17.04.2024.
- 6."Xalq so'zi"gazetasidan. Istam Ibrohimov. Olindi: 07.04.2024.
7. Yuldasheva, B. (2023). ORTA OSIYO XONLIKALARINING SIYOSIY TARIXIY GEOGRAFIYASI ANNOTATSIYA. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
8. Yuldasheva, B., & Razikova, M. (2023). XORAZMSHOHLAR DAVLATINING TARIXIY GEOGRAFIYASI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 420-422).
9. Yuldasheva, B. M. ., & Islomova, S. J. qizi . (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszlosci*, 41, 132–135.

10. Yuldasheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOIY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 356-359.
11. Bibirjab Yo`ldasheva, & Sharipova Parizod. (2023). Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O’rni. *Miasto Przyszlosci*, 41, 424–429.
12. Yuldasheva, B., & Muxtorova, S. (2023). O’RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 9-13.
13. Yuldasheva, B., & Rahmatova, F. (2023). SOVET ITTIFOQI TARKIBIDAGI O’ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA NAZAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 205-208.
14. Bibirjab Yuldasheva, & Guliniso Rashidova. (2023). BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA ELCHILIK MUNOSABATLARI (XVIII ASRDA). “*ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM*, 1, 348–351.
15. Yuldasheva, B. (2024). The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 84, p. 01039). EDP Sciences.
16. Bibirjab, Y., & Niginabonu, S. (2024). Historical Geography of Amir Timur State. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(1), 7-10.
17. Bibirjab, Y., Jo’rayeva, D., & Ahmadjon, A. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA TOMORQA XO’JALIGINING RIVOJLANISHI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 287-290.
18. Yuldasheva, B., & Hazratov, S. (2024). O ‘ZBEKISTONDA SOVET HUKUMATI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN AGRAR TADBIRLAR. *IQRO INDEXING*, 9(2), 398-404.
19. Bibirjab Yuldasheva, & Yulduz Cho’lliyeva. (2024). CHOR ROSSIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA O’RTA OSIYODA YERGA EGALIK QILISH MUNOSABATLARI. *Miasto Przyszlosci*, 48, 1196–1202.